

AXSIKENT ARXEOLGIK YODGORLIGINING ARXEOLGIK ORGANILISH TARIXI

SAMINOVA ZILOLAXON DILMUROD QIZI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

ARXEOLGIYA VA ETNOLOGIYA KAFEDRASI 2-KURS MAGISTRANTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18667083>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining muhim arxeologik yodgorliklaridan biri bo'lgan Axsikent shahrining arxeologik o'rganilish tarixi tahlil qilinadi. Unda XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan boshlab olib borilgan dastlabki tadqiqotlar, sovet davri arxeologik ekspeditsiyalari hamda mustaqillik yillaridagi ilmiy izlanishlar yoritib beriladi. Shuningdek, Axsikent yodgorligida aniqlangan moddiy madaniyat namunalari, shaharsozlik tuzilmasi va ularning tarixiy ahamiyati haqida umumiy xulosalar keltiriladi. Maqola Axsikentning Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni va uning arxeologik tadqiqotlar orqali ochilgan jihatlarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

Kalit so'zlar

Axsikent, arxeologik yodgorlik, Farg'ona vodiysi, arxeologik tadqiqotlar, shaharsozlik, moddiy madaniyat, tarixiy manbalar, arxeologik ekspeditsiyalar.

Kirish

O'zbekiston hududi qadimdan Markaziy Osiyodagi yirik madaniy va sivilizatsion markazlardan biri bo'lib kelgan. Ushbu hududda joylashgan shaharlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy hayotning rivojida ham muhim rol o'ynagan. Shunday qadimiy shaharlar qatoriga Farg'ona vodiysida joylashgan Axsikent arxeologik yodgorligini kiritish mumkin. Axsikent o'zining qulay geografik joylashuvi, rivojlangan shaharsozlik an'analari va Buyuk Ipak yo'li bilan bog'liq tarixiy jarayonlardagi ishtiroki bilan ajralib turadi.

Axsikent yodgorligi o'rta asrlarda Farg'ona vodiysining yirik siyosiy va hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan. Ushbu shahar haqidagi dastlabki ma'lumotlar yozma manbalarda uchrasa-da, uning tarixini chuqurroq o'rganishda arxeologik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan arxeologik qazishmalar natijasida shaharning paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlari hamda inqiroz sabablari haqida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Axsikent arxeologik yodgorligining o'rganilish tarixini yoritish, turli davrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarni tahlil qilish hamda ularning ilmiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Shuningdek, maqolada Axsikentning O'zbekiston va umuman Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni arxeologik ma'lumotlar asosida ko'rsatib beriladi. Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish XIX asrdayoq havaskor o'lkashunoslar va tabiatshunoslarning e'tiborini o'ziga tortib kelgan. XX asrda ushbu tadqiqotlar yanada faollashdi.

Mazkur davrdan boshlab vodiy tarixini o'rganilishini ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchi avlod vakillari bo'lmish M. Y. Masson, Y. G'ulomov, T. G. Obolduyeva va A. N. Bernshtam kabi ilg'or arxeologlar “farg'onashunoslik” tadqiqotlarini boshlab bergan bo'lsalar, 70-yillardan esa I. Ahrorov, N. G. Gorbunova, O'. Islomov, A. Anarbayev, M. Isomiddinov, G. Ivanov hamda B. Matboboyev kabi mahalliy arxeologlar Farg'ona vodiysi tarixini o'rganishni yanada rivojlantirdi.

Ushbu maktabning taniqli vakillaridan biri bo'lgan tarix fanlari doktori (DSc), professor A. Anarbayev Farg'ona tarixinigina emas, butun O'rta Osiyo mintaqasining qadim o'tmishini o'rganishda o'ziga xos hissa qo'shib, "Antropogen landshaft va urbanizatsiya jarayonlarini o'rganish" maktabini yaratdi. Mazkur olim O'rta Osiyo arxeologiyasining turli jabhalarida keng ko'lamli tadqiqotlar olib borib, o'ziga xos yutuqlarga erishdi. Ushbu yutuqlarning bevosita Farg'ona vodiysiga bog'liq jihatlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha alohida ko'rsatish mumkin: Birinchidan, A. Anarbayev birinchilardan bo'lib qadimgi O'zbekiston hududida sug'orma dehqonchilikning paydo bo'lishi va ilk urbanizatsiya markazlari borasidagi izlanishlari natijasida Farg'ona vodiysida ilk dehqonchilik ildizlari adir hududlarida shakllanganligi borasidagi ilmiy qarashlarini ilgari surdi (Anarbayev A., Maksudov F. 2007. C.24). Shuningdek, keyingi yillarda Chust, Qirqhujra, Axsikent va Balandtepa kabi yodgorliklarda olib borgan tadqiqotlari davomida Farg'ona vodiysida antropogen landshaftlarning shakllanishi hamda vodiylar hududida ilk shaharsozlikning paydo bo'lishi haqida bir qator ilmiy yangiliklarni ilgari sura oldi. Jumladan, yuqorida nomlari tilga olingan tarixiy manzilgohlardagi keng ko'lamli tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysida bugungi kunda eng qadimiy shahar deb e'tirof etilgan urbanizatsiya markazi – Qirqhujra yodgorligi fanga kiritildi. A. Anarbayev rahbarligidagi "Eski Axi" guruhi Qirqhujra yodgorligida olib borayotgan tadqiqotlarining dastlabki yillaridayoq ushbu shaharning arki, mudofaa inshootlari (3 ta mudofaa devori) va diniy monumental qurilmasida olib borgan tadqiqotlari davomida olingan ilk ma'lumotlarga tayanib, ushbu manzilgoh ilk temir davriga oid muhim urbanizatsiya markazi ekanligi haqidagi xulosaga kelindi (Анарбаев. А., Мақсудов. Ф., Кубаев С., Насриддинов Ш. 2016. С.86).

A. Anarbayev ushbu yodgorlikdan olingan ma'lumotlarni tahlil qilar ekan, Qirqhujra va Balandtepa yodgorliklari madaniy qatlamlarini o'rgangan holda G'ovasoy vohasida kechgan urbanizatsiya jarayonlar haqida yangi qarashlarni ilgari surdi. Unga ko'ra, dastlab er.avv. VI asrlarda Qirqhujra yodgorligi shahar markazi sifatida rivojlanadi. So'ngra eramizning I asrlaridan boshlab mintaqada kechgan tabiiy-ekologik o'zgarishlar natijasida shahar markazi Balandtepa (Qadimgi Bob shahri)ga ko'chadi. Aynan ushbu davrdan boshlab Balandtepa G'ovasoy vohasidagi yangi shahar markazi sifatida rivojlanadi. Ikkinchidan, A. Anarbayevning shaharlar tarixini yaratishdagi yana bir muhim tadqiqot yo'nalishi bo'lmish shaharlarning tarixiy topografiyasi va infrastrukturasini o'rganish hisoblanadi. Mazkur olim Panjikent, Afrosiyob, Qanqa hamda Axsikent kabi yirik tarixiy shaharlarda olib borgan ko'p yillik arxeologik izlanishlarda bevosita o'zi ishtirok etgan holda, qazuv ishlari davomida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilib, ilk va rivojlangan o'rta asr shaharlari tarixiy topografiyasi, infrastrukturasini hamda obodonchiligi tarixini ochib bergan ilmiy monografiyani nashr ettirdi (Анарбаев А. 1981. С.35). Unda O'rta Osiyo o'rta asr shaharlarida yuksak did va o'z davri uchun yuqori texnologiyalar asosida olib borilgan obodonchilashtirish ishlari, o'sha davrga xos suv quvur va hovuz tizimlari, tozalik qoidalariga qat'iy rioya qilgan mahalla hamda ommaviy maydonlar bo'yicha ishlab chiqilgan tizimlarni tadqiq etdi. Natijada, Afrosiyob, Panjikent, Axsikent kabi ko'hna shaharlarda bundan ming yil ilgari ajoyib obodonchilik tizimi mavjud bo'lganligi aniqlandi.

Ma'lumki, o'rta asrlarda yurtimiz hududida mavjud bo'lgan yirik shaharlar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va tijorat markazlari sifatida qad ko'targan edi. Issiq iqlim sharoitida aholisi o'ta zich bo'lgan bunday markazlarda suv ta'minoti va tozalik masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmasa, shahar aholisi tez orada turli epidemiyalarga duchor bo'lishi mumkin edi. Biroq,

arxeologik tadqiqotlarda yuksak shahar madaniyati bunday hollarning oldi olinganligi o'z isobitini topdi.

A. Anarbayevning keyingi yillardagi keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlari tufayli O'zbekistonda ilk davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlariga aniqlik kiritildi. Jumladan, eramizdan avvalgi XII–XI asrlarda Baqtriya, Sug'd, Farg'ona va Xorazmda ba'zi-bir davriy farqlanish bilan, davlatchilikning ilk ko'rinishlari shakllanganligi hamda eramizdan avvalgi IX–VIII asrlarga kelib, yuqorida nomlari tilga olingan kichik-kichik davlatchalar asosida dastlab Baqtriya, so'ngra Sug'd, Farg'ona va Xorazmda ilk “markazlashgan” xududiy davlatlar shakllanganligi ma'lum bo'ldi (Анарбаев А. 2004. В.5).

A. Anarbayevning ilmiy faoliyatida Farg'ona tarixi va arxeologiyasi muhim o'rin egallagan. Xususan, Farg'onaning asosiy poytaxt shahri hisoblangan Axsikentda so'nggi 30 yil ichida qazishmalar jarayonida 18 planigrafik (qadimiy qurilma tarxini aniqlovchi) va stratigrafik (qadimiy madaniy qatlamlarni aniqlovchi) qazuv obyektlarida qo'lga kiritilgan bir necha ming arxeologik topilma asosida bir necha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Bulardan G'. Mirzaliyev, O. Papaxristu va S. Ilyosovalarning tadqiqotlarini alohida qayd etish ko'rsatish mumkin (Мирзалиев F.1986. С.10-25, Папахристу О. 1985. С. 23). Ushbu tadqiqotlarda asosan, o'rta asrlardagi Axsikent shahri moddiy madaniyatining ayrim muammolari, sopol buyum majmualarining solishtirma tahlillari va sanalashtirilishi, temirchilik hamda temirga ishlov berish va boshqa shunga o'xshash mavzular yoritilgan.

Shuningdek, A. Anarbayevning “Ахсикент – столица древней Ферганы” deb nomlangan monografiyasida esa avvalgi tadqiqotlar mujassam holga keltirilib, yangi qo'lga kiritilgan arxeologik ma'lumotlar bilan boyitilib, qadimgi yozma manbalar bilan solishtirildi. Ushbu tadqiqot natijasida A. Anarbayev Farg'onaning 1,5 ming yil davomidagi nafaqat shahar madaniyati, balki uning moddiy madaniyatining uzluksiz tarixini tiklash va yaratishga muvaffaq bo'ldi. Xususan, eramizdan avvalgi IV–I va eramizning I–IV asrlarida sopol idishlar kompleksi 70–90 yil, ilk hamda rivojlangan o'rta asrlar sopol idishlar kompleksi 50–60 yillar oralig'ida davrlashtirildi. Ushbu xulosalar Farg'ona vodiysi arxeologiyasida erishilgan eng katta yutuqlardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, Axsikent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida hunarmandchilik muhim o'rin egallaganligi alohida ta'kidlanib, bu yerdagi temirga ishlov berishning o'rni boy arxeologik ma'lumotlar asosida ochib berilgan. Ma'lum bo'lishicha, rivojlangan o'rta asrlarda Axsikentning mohir ustalari sof po'lat ishlab chiqarishni o'zlashtirib, undan toshga ursa ham sinmaydigan o'tkir qilichlar tayyorlay olgan.

Shunday qilib, keng ko'lamli arxeologik materiallar asosida Farg'ona vodiysi shahar madaniyatini tadqiq etgan A. Anarbayev qadimgi yozma manbalarda tilga olingan shaharlar lokalizatsiyasi, ya'ni joylashuv o'rni masalasini qayta ko'rib chiqib, quyidagi yangi ilmiy xulosalarga kelgan:

Qadimda Farg'ona vodiysi aholisi o'zining siyosiy uyushmasi, ya'ni davlati va bosh poytaxtini bitta toponim bilan “Farg'ona (Parg'ana)” deb atagan. Ushbu toponim “atrofi tog' yoki devor bilan o'ralgan joy” ma'nosini anglatadi. Qadimda Xitoy tarixchilari xorijiy toponimlarni o'z ona tillariga tarjima qilib, manbalarga kiritgan. Shuning uchun Xitoy tarixchisi Sima Syan “Farg'ona” nomini “Yuan” deb tarjima qiladi.

Farg'ona davlati haqida gap ketganda, uni poytaxtdan farqlash uchun 2 ta iyeroglif ishlatgan, ya'ni “Day-Yuan” – “Katta Farg'ona” deb qayd etgan. A. Anarbayevning fikricha,

Farg'ona vodiysining Yuan (Parg'ona) deb atalgan bosh shahri Eski Axi (Axsikent) arxeologik yodgorligi o'rnida joylashgan. Shu bilan birga, ushbu olimning fikricha, eramizdan avvalgi II asrda shimoliy-sharqdan kelgan yuyechji qabilalari vakillari Farg'ona vodiysida siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritgach, ushbu davlatning yangi bosh shahri mazkur qabilaning mahalliy tildagi nomi bilan “Guyshuan (Kushon)” deb atala boshlaydi. Ushbu shahar esa hozirgi Mug'tepa (Kosonsoy) xarobasi o'rnida qad ko'tarib, Turk xoqonligi davrigacha o'z faoliyatini davom ettiradi. Lekin, shunga qaramay, A. Anarbayerev ta'kidlaganidek, Axsikent tarix sahifasidan o'chib ketmay, u Farg'ona davlatining iqtisodiy markazi bo'lib qolaveradi. Keyinchalik Farg'ona nomi arab tarixchi va geograflari Tabariy hamda Ibn Xordadbeh asarlarida tilga olinadi. Shu bilan birga, A. Anarbayerev Xitoy manbalarida tilga olingan “Yuchen” shahrining ham yangicha lokalizatsiyasini berib, uni arxeologik materiallar asosida isbotlashga harakat qiladi.

A. Anarbayerev Marg'ilon shahrining yoshini aniqlagan muallif sifatida 2007-yilda ushbu qadimiy shaharning 2000-yillik yubiley tantanalarini tayyorlash hamda o'tkazishda faol qatnashib, bu borada uning monografiyasi, 1 ta risola va ko'plab ilmiy maqolalari e'lon qilindi. Tadqiqot natijalari Marg'ilonsoy vohasida shahar madaniyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi. Jumladan, eramizdan avvalgi I asrning oxirlarida, hozirgi Marg'ilon shahrining Mashhad mahallasida 20 gekardan ziyod maydonda qadimiy shahar qurilganligi ilmiy asoslandi. Shu asosda, YUNESKO Bosh konferensiyasining 33-sessiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 9-noyabrdagi “Marg'ilon shahrining 2000-yilligini nishonlash to'g'risida”gi Qarorlari bilan ushbu qadim shaharning 2000-yillik yubiley tantanalari o'tkazildi (Анарбаев А.2007. В.17). 2011–2012-yillarda Qo'qon shahri va uning atroflaridagi Tepaqo'rg'on hamda Mui Muborak yodgorliklarida A. Anarbayerev rahbarligida keng ko'lamda arxeologik tadqiqotlar olib borilib, ushbu tadqiqot natijalari “Археологические исследования в г. Коканде и его окрестностях” monografiyasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra, mazkur arxeologik tadqiqotlar Qo'qonsoy vohasida ilk sug'orma dehqonchilik va shahar madaniyatining shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari aniqlandi. Shu asosda, bundan 2000-yil avval Qo'qon shahriga asos solingan bo'lib, u Farg'ona (“Dayyuan”) konfederatsiyasi tarkibiga kirgan kichik hududiy davlatning markazi bo'lganligi borasida xulosalarga kelindi (Анарбаев А., Сайфуллаев Б., Саидов М. 2014. В.32).

2013–2014-yillarda A. Anarbayerev boshchiligidagi ekspeditsiyaning Farg'ona va Namangan viloyatlaridagi arxeologik yodgorliklar ro'yxatini shakllantirishdagi ishlari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu tadqiqot davomida ikkala vodiylaridagi mazkur manzilgohlar yodgorliklar tarixiga oid ilmiy izlanishlar, arxiv malumotlari hamda bevosita kuzatuv ishlari natijasida 177 ta arxeologik yodgorlik aniqlandi (Анарбаев А., Саидов М. 2016 В.40- 45). Shundan bevosita 153 tasi 1979-yildagi N. G. Gorbunovanning xaritasida qayd etilgan bo'lsa, qolgan 20 dan ziyodi keyingi yillarda amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar davomida aniqlandi.

Jumladan, Namangan viloyatida olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida esa viloyatda aniqlangan 163 ta yodgorliklarning 8% butunlay, 33% kuchli, 59% esa qisman buzilganligi qayd etildi. Shu bilan birga, mavjud yodgorliklarning 27% qabriston sifatida foydalanib kelinayotganligi malum bo'ldi.

“Arxeoseysmologiya”ni O'zbekiston Respublikasida birinchilardan bo'lib joriy etishdagi tadqiqotlarini ham alohida qayd etish joiz. Mazkur tadqiqotchi Rossiya Federatsiyasi O. Yu. Shmidt nomidagi “Fizika va Yer instituti” hamda Fanlar akademiyasi Seysmologiya institutlari

bilan hamkorlikda Farg‘ona vodiysining qadimiy yodgorliklari hisoblangan Eylaton, Qirqhujra, Balandtepa, Mug‘tepa-Mug‘qal‘a va Axsikentda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borib, vodiylar hududida antropogen landshaftning shakllanishi hamda urbanizatsiya jarayonlarida seysmologik jarayonlar muhim bo‘lganligi to‘g‘risidagi muhim xulosalarga keladi (Корженков А. М., Усманова М. Т., Анарбаев А. А., Саидов М., Насриддинов Ш., Захидов Т. К. 2020. С. 5-27). Xususan, Axsikent va Mug‘tepa-Mug‘qal‘a yodgorliklarida olib borgan tadqiqotlarni o‘zaro taqqoslagan holda Farg‘ona vodiysi poytaxt shahrining ko‘chish jarayonlarini ko‘rsatib berildi. Shuningdek, Qirqhujra hamda Balandtepa yodgorliklaridagi tadqiqotlar natijasida Farg‘ona vodiysining eng qadimiy shahrida hayot tarzi to‘xtab, aholining yangi shaharga ko‘chib o‘tishiga aynan ushbu omil sabab bo‘lganligi haqidagi asosli fikrlar ilgari surildi.

A.Anarbayerovning tadqiqotlari orasida Farg‘ona vodiysining poytaxt shahri deb talqin etiluvchi Axsikent yodgorligi alohida o‘rin tutadi. Bu yerdagi 50 yillik tadqiqotlari davomida A. Anarbayerov qadim shahar tarixiga oid 1 ta monografiya, 1 ta oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma, shuningdek, xorijiy va respublika jurnallarida 100 dan ortiq ilmiy maqolalar nashr etdi (Анарбаев А. 2013.С.78). Mazkur qadimiy yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar davomida bir qancha muhim yutuqlarga erishildi. Ushbu yodgorlikning saqlanib qolish va kelgusi avlod uchun yetkazib berish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar ham alohida e‘tirofga loyiq.

Turli davrdagi tadqiqotlardagi qiyinchiliklarga qaramasdan, A. Anarbayerovning o‘z shogirdlari bilan birgalikda “Eski Axbi” kompleks ekspeditsiyasining muntazam davom ettirishi respublika hukumati e‘tiboriga ham tushib, 2017-yil 17-oktyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida “Axsikent arxeologiya merosi obyektni muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 831-sonli Qarorining chiqarilishi, shuningdek, u asosida Axsikentda Respublikadagi tom qismi to‘liq yopilgan dastlabki

Ochiq osmon ostidagi muzey”ning tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ushbu tarixiy yodgorlikka qilgan tashrifi davomida bu yerda olib borilgan tadqiqotlarni yuqori darajada baholab, majmua faoliyatini yanada kengaytirish bo‘yicha ma‘sullarga topshiriq berdi. Mazkur majmua kelajakda Axsikent bazasida Farg‘ona vodiysidagi boshqa arxeologik yodgorliklarni tadqiq etish va ularni saqlanishini ta‘minlash bo‘yicha muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Axsikent yodgorligining yana 5 ta obyektida ana shunday muzeylar tashkil etish bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Mazkur sohadagi faoliyatning natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev yodgorlikka tashrifi davomida Axsikent bazasida Farg‘ona vodiysini tarixini o‘rganilishini yanada faollashtirish maqsadida Namangan davlat universitetida A. Anarbayerovning “Antropogen landshaft va urbanizatsiya jarayonlarni o‘rganish” maktabini yanada rivojlantirish bo‘yicha topshiriq berdi. Shu asosda, Namangan davlat universitetida “Arxeologiya” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr hamda “Arxeologiya” va “Etnografi, etnologiya va antropologiya” bo‘yicha esa magistratura mutaxassisliklari ochilib, bugungi kunda ushbu yo‘nalishlarda 61 nafar bakalavr, 21 nafar magistrlar tahsil olmoqda.

Bugun kunda “Eski Axbi” ekspeditsiyasi “Axsikent kompleks ekspeditsiyasi” nomi ostida Namangan viloyatining Axsikent, Qirqhujra, Chust, Balandtepa va Mug‘tepa-Mug‘qal‘a yodgorliklarida keng ko‘lamdagi tadqiqotlar olib borilmoqda, o‘z navbatida, ushbu ilmiy

izlanishlarda Namangan viloyatida shakllanayotgan yosh arxeologlar maktabi vakillari o'z tajribalarini orttirib bormoqda.

Anarbayev o'zining qariyb 55 yillik ilmiy faoliyati davomida Farg'ona vodiysi tarixi va arxeologiyasi bo'yicha 100 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar nashr etishga erishdi. Ushbu ilmiy izlanishlarning 30 dan ziyodi xorijiy davlatlarda chiqadigan nufuzli arxeologiya va tarixga oid jurnal hamda to'plamlarda nashr qilindi. Ayni vaqtda, A. Anarbayev dunyoning bir qancha davlatlari, shu jumladan, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda ilmiy safarlarda bo'lib, ushbu mamlakatlarda o'tkazilgan xalqaro konferensiyalar hamda simpoziumlarda Farg'ona vodiysi arxeologiyasiga oid so'nggi ilmiy yangiliklar va yutuqlarni targ'ib qilib kelmoqda. A. Anarbayev o'z ilmiy kashfiyotlarini nafaqat ilmiy nashrlar, balki OAV orqali ham yoritib, namoyon etib, xalqimizga o'zining shonli tarixini o'rganish, anglash va shu orqali g'ururlanish hissini uyg'otib kelmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Анарбаев А., Максудов Ф. Древний Маргилан. – Ташкент, 2007; Анарбаев А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент, 2013;
2. Корженков А., Усмонова М., Анарбаев А и др. Недооцененная сейсмическая опасность Ферганской впадины: новые археосейсмологические данные // Геофизические процессы биосфера. Т.18. – Москва, 2019. – №3. – С. 7–90.
3. Анарбаев. А., Мақсудов. Ф., Кубаев С., Насриддинов Ш. Чильхуждра (Кыркхуждра) – руины древнего города северозападной Ферганы // ИМКУ. Вып 39. – Самарканд, 2016. – С. 89– 113.
4. Анарбаев А. А. Благоустройство средневекового города Средней Азии. – Ташкент, 1981;
5. Анарбаев А. А. Ахсикет – столица древней Ферганы. – Ташкент, 2013.
6. Анарбаев А. А. Ўзбекистонда илк давлатчилик ва унинг ўрганилиш тарихидаги баъзи бир муаммолар //Ўзбекистон тарихи. – 2004. – №4. – Б. 3–14.
7. Мирзалиев Ғ. Неглазуванная керамика XII – начала XIII вв. с городища Эски Ахси // ИМКУ. – Вып. 20. – Ташкент, 1986.
8. Папахристу О. Черная металлургия средневекового Ахсикета. Автореф.дисс.к.и.н. – Москва, 1985.
9. Анарбаев А. Марғилоннинг узоқ ўтмиш маданиятини излаб. – Самарқанд, 2007;
10. Анарбаев А, Максудов Ф. Древний Маргилан. – Ташкент, 2007.
11. Анарбаев А., Сайфуллаев Б., Саидов М. Археологические исследования в г. Коканде и его окрестностях. – Самарканд, 2014.
12. Анарбаев А., Саидов М. Фарғона вилоятида 2013 йилда олиб борилган археологик дала-қидирув тадқиқотлари // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2013–2014 йиллар. – Самарқанд, 2016. – №10. – Б. 40–45
13. Корженков А. М., Усманова М. Т., Анарбаев А. А., Саидов М., Насриддинов Ш., Захидов Т. К. Сейсмические деформации в археологических памятниках Мугкалга и Мугтепа (Ферганская впадина, Узбекистан) // Вопросы инженерной сейсмологии. – Москва, 2020. Т. 47. – №3. – С. 5–27. <https://doi.org/10.21455/VIS2020>.